

## URXUN-YENISEY YOZUVI

**Bazarov Sherali Abdinazarovich**

Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti

O‘zbek tili va adabiyoti (tillar) kafedrası o‘qituvchisi

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada urxun-yenisey yozuvi tarixi, bu yozuvning paydo bo‘lishi haqida ma’lumotlar aniq misollar bilan ko‘rsatib o‘tilgan. Maqola davomida urxun-yenisey yozuvi hamda shu davrda qo‘llanilgan yozuvlarni bir-biri bilan qiyoslagan holda batafsil to‘xtalib o‘tilgan. Maqola yakunida yozuv namunasi yozilgan bitiktoshlarning o‘ziga xosligi hamda farqli jihatlari haqida kerakli ma’lumotlar berilgan.*

***Kalit so‘zlar:** Urxun-yenisey yozuvi, Yenisey yodgorliklari, Talos yodgorliklari, Urxun yodgorliklari, “To‘nyuquq bitiktoshi”, “Irq btigi”.*

Kaspiy dengizidan to Tinch okeanigacha, Rubandan Xitoygacha bo‘lgan hududda buyuk turk xoqonligi davrida ilm fan gullab yashnagan. Sanoat rivojlangan edi. Eng xarakterlisi shundaki, hali eramizdan avvalgi ming yilliklar davridayoq bu hududda yashagan turkiy xalqlar o‘zlarining yozuvlariga ega edilar. 759-yilda marmar toshga o‘yib yozilgan Myunchur bitigtoshida «Ming yillik, tuman, kunlik yozuvimni bu toshga o‘yib yozdim» degan jumlar bor edi. Demak, turkiy qabilalarining yozuv madaniyati miloddan oldin boshlangan.

Qadimgi turkiy davri barcha urug‘ va qabilalarning umumiy tili sifatida VI–XIII asrlarni o‘z ichiga oladi. Qadimgi turkiy til o‘zining kelib chiqishi va rivojlanishi jihatidan oltoy va xun tili davrlari bilan uzviy ravishda bog‘langan. Bu davr tili haqida B.Ya.Vladimitsov qo‘yidagi fikrlarni bayon qiladi: «Mo‘g‘ul tili turk va tungus tillari bilan birga o‘zlarining bir umumiy ajdodiga ega bo‘lganki, uni shartli ravishda oltoy tili deb atash mumkin. Oltoy tili hozircha ma’lum emas, ya’ni oltoy tilining rivojlanishi jarayonida tashkil topgan mo‘g‘ul, turk, tungus tillari ma’lum. Bu davr turkiy tillar taraqqiyotining birinchi, eng qadimgi bosqichi bo‘lib, fanda u oltoy tili nomi bilan yuritiladi. Bu davrda til, turkiy tillar mug‘ul tillaridan, mo‘g‘ul tillari esa, o‘z navbatida, tungus - manchjur tillaridan ajralib chiqmagan edi. Ular bir til sifatida qo‘llanilar edi. Shunday qilib, qandaydir eng qadimgi tilning bo‘lganligi taxmin qilinadi. Bu tilga xos umumiy leksik, fonetik va grammatik belgi xususiyatlar esa hozirgi mo‘g‘ul turkiy va tungus–manchjur tillarida saqlanib qolgan» .

Oltoy tili davrida yashagan xalqlar va ularning tili haqida aniq ma'lumotlar beruvchi tarixiy yodgorliklar yo'q. Bu davr tilining ayrim xususiyatlari qadimgi o'lik tillarning eng qadimgi belgilari bilan hozirgi jonli tillarni tarixiy-qiyosiy usul asosida qiyoslab o'rganish orqali taxminiy ravishda aniqlanishi mumkin. Tarixiy taraqqiyot jarayonida tillarning qo'shilishi, ajralib ketishi natijasida oltoy tili davrining oxirlarida bu tillar tabaqalanadi va ikkita katta til guruhlariga bo'linadi, ya'ni tungus-manchjur va turk-mo'g'ul tillar guruhlariga ajralib chiqadi. O'z navbatida, ijtimoiy-siyosiy munosabatlarning o'sishi, ajralib chiqishi, farqlanish jarayonining davom etishi asosida bu tillarning har qaysisi asta-sekin o'ziga xos leksik, fonetik va grammatik xususiyatlarga ega bo'lib boradi. Buning natijasida xun davrining oxirlarida turk-mo'g'ul til birligidan turk tillari va mug'ul tillari ajralib chiqadi.

Turkiy tillarning eng qadimgi davrlaridagi taraqqiyotining ikkinchi bosqichi xun davri hisoblanadi (eramizgacha III asrdan eramizning IV asrigacha). Bu davrda Markaziy Osiyodan Sharqiy Evropagacha bo'lgan katta hududda qudratli Xun imperiyasi tuziladi. Keyinchalik bular asosida g'arb va sharqda turklar boshchiligida bir qancha qabila ittifoqlari mustahkamlanishi ko'p jihatdan turkiy qabilalar va tillarning rivojlanishi katta ta'sir qiladi. Ular umumiy belgilarini saqlagan holda, asta-sekin o'zlariga xos xususiyatlarni ham hosil qila boshlaydilar, natijada bu barcha turkiy tillarning ikki guruhga-sharqiy va g'arbiy-turkiy tillarga bo'linishiga olib keladi. Bu davrdagi turkiy tillarning xususiyatini ko'rsatuvchi tarixiy manbalar yo'q. V.V.Bartol'd chuvash tili bo'yicha tadqiqotlariga asoslanib, xun davridagi til chuvash tili bilan umumiylikka ega bo'lgan, buni venger tilidagi turkiy unsurlarning chuvash unsurlari bilan o'xshashligi ham tasdiqlaydi, degan fikrni ilgari suradi. Xun davrida turlicha turk, mo'g'ul, turk-manchjur qabilalari tillarining o'zaro bir-biriga ta'sir qilishi, qo'shilishi, chatishib ketishi va qayta tashkil topishi jarayonida o'sha vaqtda Markaziy va O'rta Osiyoda hamda Sharqiy Evropada yashagan qadimgi eroniy, xitoy, sanskrit va slavyan qabilalari tillarining ishtiroki ham bo'lgan.

Xun davrida turkiy tillar ham ko'pgina urug' va qabilalarning tillari sifatida mavjud edi va ularga xizmat qilar edi. Bu davrda ularning r-l tillari (qadimgi avar, bulg'or va hozirgi chuvashlarning o'tmishdoshi) hamda z-sh tillariga (qadimgi o'g'uz, qirg'iz, qarluq va qipchoqlar) ajralishi davom etardi. Fonetik qurilish va leksikadagi-s/z va l-sh/j tarzida moslashish hodisasining qoldiqlarini hozirgi oltoy va bir qator turkiy tillarda uchratish mumkin: r-s/z, bas – bormoq va bar – barmoq; kaz va qor (qo'rmoq), l-sh/j; besh va belek – tirsak (guvashcha pilek-besh), bo'sh-bulg'os – aralashtirmoq kabi. Shu bilan birga, bu davrda mayda-mayda turkiy qabilalarning tabaqalanishi va bir-biriga qo'shilishi, birlashishi jarayoni ham davom etardi.

Qadimgi turkiy til davri. Bu davrda turkiy urug' va qabilalar xun (ham sharqiy xun, ham g'arbiy xun) davlati tarkibiga kirar edi. VI asr o'rtalarida turklar kuchayib, yirik bir qabila ittifoqiga birlashadi, qo'shni qabilalarni engib, 552 yilda o'zlarining mustaqil davlatlarini—turk xoqonligini barpo qiladi. 555 yilga kelib Markaziy Osiyodagi xalqlar Manjuriya va Enasoy qirg'oqlarigacha bo'lgan erlarni o'zlariga qaratib oladilar. Harbiy va siyosiy qudrati asta—sekin kuchayib borgan turk xoqonligi eftalitlar davlatini tor—mor qiladi. Amudaryo va Orolgacha bo'lgan joylarni, VI asrning 70—yillarida esa Shimoliy Xitoydagi Chjou va Chun davlatlarini bosib oladi. Xoqonlikning chegarasi Amudaryodan Hindistongacha cho'zilar edi. Ammo qabilalar o'rtasidagi o'zaro urushlar hamda Xitoyning kuchayib ketishi va bu urushlarga aralashuvi natijasida VI asrning 80—yillarida turk xoqonligi parchalanib, Sharqiy turk xoqonligi va /arbiy turk hoqonligiga bo'linib ketadi .

Sharqiy turk xoqonligi Markaziy Osiyoda o'z hokimiyatini o'rnatadi, VII asrning 2—choragida Xitoyga qaram bo'lib qoladi. 681 yilda xoqon qutlug' (Ilterin) va uning maslahatchisi To'nyuquq mustaqillikni qo'lga kiritadilar. Sharqiy turk xoqonligining keyingi kuchaygan davri 682—745 yillarga to'g'ri keladi. Hoqon Qopog'on (691—716 yillar) davrida turklar Samarqandgacha borib etadilar. Xoqon Bilga vafoti (734 yil) dan keyin kuchaygan o'zaro urushlar natijasida Sharqiy turk xoqonligi parchalanib ketadi, 745 yilda esa uyg'urlar tomonidan bosib olinadi.

Markazi Yettisuv bo'lgan /arbiy turk xoqonligi esa mustaqil davlat sifatida VII asrning 1—yarmida Sharqiy Turkistondan Kaspiy dengizgacha bo'lgan erlarda o'z hukmronligini o'rnatadi. Qo'shni davlatlar bilan savdo—sotiq ishlari rivojlanadi. Samarqand, Buxoro, Choch (Toshkent), Marv, Chorjo'y kabi katta shaharlar obod bo'ladi. Ammo Xitoy va shimoliy qo'shni davlatlarining hujumi, ichki o'zaro feodal urushlar natijasida /arbiy Turk hoqonligi tugatiladi. Turklarning bir qismi Sharqiy Turkistonda o'zlarining ittifoqini barpo qiladi, Yettisuv va uning atroflarini esa turgeshlar qo'lga kiritadi. Keyinroq esa bu erlar Oltoydan ko'chib kelgan qarluqlar qo'lga o'tadi. O'g'uzlar esa g'arbga tomon yurish qilib, VIII asrda Sirdaryoning quyi qismi havzasidan Qoraqumgacha bo'lgan hududda o'z davlatlarini barpo qiladilar.

Turkiy tillar taraqqiyotining uchinchi bosqichiga, ya'ni qadimgi turkiy davrdagi turkiy urug' va qabilalar, ularning tillariga oid juda ko'p yozma manbalar, tarixiy yodgorliklari mavjud. Jumladan, turk xoqonligi tarkibiga kirgan turkiy urug'lar va ularning tillari O'rxun—Yenisey yodgorliklari orqali aniqlangan. Urxun—Enisey yodgorliklarining ko'pchiligi rus olimlari tomonidan topilgan. Bular orasida, ayniqsa, sibirlik o'lkashunos N.M.Yadrintsev tomonidan 1889 yilda Mo'g'ulistondagi Urxun daryosi bo'ylaridan topgan yodgorliklar katta ahamiyatga ega. Xuddi shunday yodgorliklarning kattagina bir qismi Enisey daryosining yuqori qismidan va

Qirg'izistondagi Talas vodiysidan, shuningdek, Baykal ko'li atroflari, Lena daryosi sohillaridan ham topilgan.

O'rxun–Enisey yodgorliklari, asosan, toshlarga o'yib bitilgan yozuvlarda idish, tangalar kabi buyumlarda va qog'ozlarga yozilgan bitiklardan iborat bo'lib, bir qancha vaqtlar olimlar uchun o'qilishi jumboq bo'lib qoladi. Shunga ko'ra u qadimgi skandinav-german tillariga oid run, runiy (runa–sirli, yashirin demakdir) yozuvi nomi bilan ham yuritiladi. Faqat XIX asrning 90–yillarida u yozuvni dastlab daniyalik olim V.Tomson va rus turkshunosi V.V.Radlov o'qiydilar. Ular bu yodgorliklarning til xususiyatlari turkiy xalqlarga tegishli ekanligini aniqlab beradilar. Shundan keyin ko'p yillar davomida bu yozuvlarni tarjima qilish, til xususiyatlarini o'rganish va nashr etish sohasida katta ishlar qilindi.

Bu bitiklar VI–VIII asrlarga tegishli bo'lib, turk xoqonligi davrida runiy yozuvida bitilgan. Ular grafik jihatdan bir – biriga ancha yaqin turadi. So'g'diy yozuvi asosida paydo bo'lgan qadimgi turkiy run yozuvi /arbiy va Sharqiy turk xoqonligida keng tarqalgan edi.

Turk xoqonligi tarkibiga kirgan turklarning bevosita davomchisi, vorisi bo'lgan urug'lar juda katta meros–o'sha davr tilini aks ettiruvchi yozma yodgorliklar qoldirganlar. Bu yodgorliklar birin–ketin yozilganligi xronologik jihatdan ikki davrga bo'linadi.

Birinchi davrga xos obidalar eng qadimgi yodgorliklar bo'lib, ular O'rxun obidalarini bilan umumiylikka ega bo'lgan bitikdoshlardan iborat. Bular ichida eng mashhuri turk xonlari Qultegin va To'nyuquq shaniga qo'yilgan qabr toshlariga yozilgan yodgorliklardir. Bu toshlar «O'rxun–Yenisey yozuvlari» deb nomlanadi. Shuningdek, bu yozuv run nomi bilan ham ataladi. «Run» so'zi Skandinaviya xalqlari tilida «sirli tilsim» ma'nolarida qo'llangan. Sibirda surgunda bo'lgan shved ofitseri F.T.Tabbert–stralenberg 1730 yilda Urxun–yenisey yozuvining bir nechalarini topib, hali tarixda noma'lum bo'lgan va hech kimsaga tushunarli bo'lmagan bu yozuvni yuqoridagidek nomlagan edi.

Bu yozuvni dastlab V.Tomson o'qidi. U 1893 yil 15 dekabrda Daniya fanlar akademiyasi majlisida O'rxun daryosi bo'yidan topilgan yodgorliklarning sirini topganligini ma'lum qiladi va bu yodgorlik turkiy xalqlar tilida yozilganligini bildirdi. 1894 yil 19 yanvarida V.Radlov «Qultegin» sharafiga qo'yilgan yodgorlikning tarjimasini beradi.

R.Melioranskiy 1899 yilda uning qayta tarjimasini beradi. O'rxun–Yenisey yodgorliklari o'z navbatida yana 3 tarmoqqa bo'linadi.

1. Yenisey yodgorliklari. Bu hozirgi Tuva Avtanom viloyatidan topilgan yodgorliklardir.

2. Urxun yodgorliklari. Mo'g'uliston hududagi Urxun daryolari bo'yidan topilgan Qultegin, To'nyuquq yodgorliklardir.

3. Talos yodgorliklari. Hozirgi Janbul viloyatidan topilgan yodgorliklardir.

Qadimgi turkiy tilning run yozuvida bitilgan yirik namunalari quyidagilardir:

1. Qultegin bitiktoshi. Bu bitiktosh Eltarish o'g'li Bilga Xoqonning inisi Qulteginning sharafiga qo'yilgan.

2. Bilga hoqon bitiktoshi. Bu marmar Eltarish Hoqonning o'g'li Qulteginni og'asi Bilga xoqon sharafiga 735-yilda qo'yilgan.

3. To'nyuquq bitiktoshi. Bu yozuv yodgorligi ikkinchi turk xoqonligining asoschisi Eltarish xoqon va uning xotini Elbilga xotun sharafiga, so'ngra Qapag'on xoqon sharafiga qo'yilgan deb taxmin qilingan edi. J.Klosson bitikning ayrim erlariga tuzatish kiritib yuqoridagi fikrning noto'g'riligini isbotladi va bitiktosh Qapag'on bilan bilga xoqonlarning sarkardasi Eltarishning sharafiga qo'yilgan degan qarorga keldi.

4. Qulichur bitiktoshi. Bitiktoshni 1912-yilda pol'shalik professor V.Kotvich Mo'g'ilistonning Ulan-Bator yaqinidagi Iks-Xushotu manzilidan topgan.

5. Moyunchur bitiktoshi. Buni fin olimi G.I.Ramstedt 1909-yilda Shimoliy Mo'g'ulistonda Selenga daryosida Shineusu ko'liga yaqin erdan topgan. Bitiktosh 759-yilda qo'yilgan deb taxmin qilinadi. Qadimgi turkiy til taxminan V-X asrlarda vujudga kelgan. Turk xoqonligi davrida turkiy qabilalar to'liq tabaqalanadi. Markazlashish, o'zaro birlashish jarayonida qo'shilish va ajralib ketish asosida rivojlangan turkiy urug'lar hukmronligi davrida umumturkiy adabiy til sifatida shakllandi. Bu adabiy tilning tashkil topishida qarluq-chigil tillari, shuningdek uyg'ur tili asos sifatida qatnashadi, uning taraqqiyotiga ma'lum darajada taʼsir qiladi. X-XII asrlarda Qoraxoniylar hukmronligi davrida qo'llangan, ma'lum darajada meʼyorga solingan turkiy adabiy til qisman o'g'uz-qipchoq tillari xususiyatlarini ham o'z ichiga olar edi. Eski o'zbek adabiy tilining xalq tili sifatida shakllanish davri ham mana shu vaqtlarga to'g'ri keladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Yusupov K. “O‘zbek adabiy tilining taraqqiyoti va yozuv masalasi”, “O‘zbekiston”, Toshkent – 1979 yil.
2. Ishoqov M, Rahimov N, Sodiqov K, To‘xliiev B. “O‘lmas Obidalar:” (O‘zbekiston xalqlarining qadimgi yozma yodgorliklari bo‘yicha tadqiqotlar). “Fan” Toshkent – 1990 yil.
3. N. Maxmudov, Yozuv tarixidan qisqacha lug‘at ma‘lumotnoma, Toshkent – 1990-yil
4. R. Yo‘ldoshev “Avesto” yozuvi va tili “Avesto” yaratilganligining 2700 yilligiga bag‘ishlangan xalqaro ilmiy – Amaliy konferentsiya tezislari, Xiva – 2000-yil.
5. Z. Do‘simov, O. Botirov, R. Yo‘ldoshev “Yozuvlar tarixidan” Urganch –2000 yil.
6. Abdinazarovich, B. S. (2023). AVESTO YOZUVI.
7. Bazarov, S. (2023). Avesto yozuvi. *Академические исследования в современной науке*, 2(13), 32-35.
8. Bazarov, S. (2023). SO ‘G ‘D YOZUVI. *Академические исследования в современной науке*, 2(15), 57-59.
9. Abdinazarovich, B. S. (2022). YOZUV VA UNING KELIB CHIQISH TARIXI. *TA ‘LIM VA RIVOJLANISH TAHLILI ONLAYN ILMIY JURNALI*, 2(4), 116-119.
10. Давыдов, Ю. Д., & Базаров, Ш. А. (2021). ФЕНОМЕН НЕОДНОЗНАЧНОСТИ В ПРОИЗВЕДЕНИЯХ ИСКУССТВА. *ИННОВАЦИИ В ПЕДАГОГИКЕ И ПСИХОЛОГИИ*, 4(7).